
Türkiye's experience in organizing academic mobility (case of the MEB system)

Cennet Güler⁹
cennetguler25@gmail.com

Lecturer,
Uzbekistan State World Languages University

Annotation *This study aims to examine the process of assigning teachers and pedagogical personnel abroad by the Ministry of National Education (MoNE) within the scope of educational diplomacy, which is a vital component of the Republic of Türkiye's "soft power" strategy. As in many other countries, high-quality instruction in the Turkish language and culture is primarily facilitated by personnel assigned to Turkology departments or educational institutions where Turkish is taught, particularly in Uzbekistan. Concurrently, inter-state relations are strengthened through various projects implemented based on the "Turkish language bridge". This article first elucidates the historical background, rationales, and legal foundations of the process; subsequently, it provides a detailed analysis of the mechanism for assigning "lecturers/pedagogical personnel", candidate selection criteria, examination systems, and their adaptation processes. As a result of the study, detailed information on all these processes is presented, and the finding that a total of 22 Turkish language lecturers are actively serving across Uzbekistan, primarily in the capital, Tashkent, and various other provinces, is shared. The steadily increasing interest in the Turkish language in Uzbekistan suggests that the number of qualified Turkish language instructors should also be increased. Based on the outcomes of this study, the following conclusions and recommendations can be drawn: the need for Turkish language instructors in educational institutions where Turkish is taught, particularly in Uzbekistan, can be addressed in coordination with the Ministry of National Education (MoNE) of the Republic of Türkiye.*

Keywords *Educational diplomacy, soft power, academic mobility, assigning personnel abroad, Turkish language*

Akademik mobillikni tashkil etishda turkiya tajribasi (MEB tizimi misolida)

Cennet Güler
cennetguler25@gmail.com

O'quvtuchi,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya *Ushbu tadqiqot Turkiya Respublikasi "yumshoq kuch" strategiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lmish ta'lim diplomatiyasi faoliyati doirasida Milliy ta'lim vazirligi (MEB) tomonidan amalga oshirilayotgan xorijga o'qituvchi va pedagog kadrlarni yuborish jarayonini o'rganishni maqsad qilgan. Boshqa ko'plab davlatlar qatori, avvalo, O'zbekistondagi Turkologiya kafedralari yoki turk tili o'qitiladigan ta'lim muassasalariga xizmatga yuborilgan kadrlar yordamida mazkur mamlakatlarda turk tili va turk madaniyatini yuqori malakali tarzda o'rgatishga hissa qo'shilmogda. Shu bilan birga, turk tili ko'prigi asosida amalga oshirilayotgan turli loyihalar vositasida davlatlar o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanmogda. Mazkur maqolada*

⁹ Güler C. — ORCID: 0000-0001-8475-8959

dastlab jarayonning tarixiy zamini, sabablari va huquqiy asoslari yoritib berilgan; shundan so'ng, xususan, "lektor/pedagog kadr" yuborish mexanizmi, nomzodlarni tanlash mezonlari, imtihon tizimlari va ularning moslashuv jarayonlari batafsil tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida mazkur jarayonlarning barchasiga doir batafsil ma'lumotlar taqdim etildi hamda O'zbekiston bo'ylab jami 22 nafar turk tili lektori, avvalo, poytaxt Toshkent va O'zbekistonning turli viloyatlarida faol xizmat ko'rsatayotganligi qayd etildi. O'zbekistonda turk tiliga bo'lgan qiziqishning tobora ortib borishi malakali turk tili o'qituvchilari sonini ham oshirish zarurati degan xulosaga olib kelmoqda. Ushbu tadqiqot yakunlariga ko'ra, xususan, O'zbekiston misolida turk tili o'qitiladigan ta'lim muassasalarining turk tili o'qituvchilariga bo'lgan ehtiyojini Turkiya Respublikasi Milliy ta'lim vazirligi (MEB) bilan o'zaro aloqalar o'rnatgan holda qondirish mumkinligi haqidagi xulosa va tavsiyani bildirish joizdir.

Kalit so'zlar *Ta'lim diplomatiyasi, yumshoq kuch, akademik mobillik, xorijga kadr yuborish, Turk tili*

Опыт Турции в организации академической мобильности (на примере системы МЕВ)

Дженнет Гюлер
cennetguler25@gmail.com

*Преподаватель,
Узбекский государственный университет
мировых языков*

Аннотация *В настоящем исследовании изучается практика отправки за рубеж квалифицированных преподавателей и педагогических работников, которая осуществляется Министерством национального образования (МНО) в рамках образовательной дипломатии, являющейся важной составляющей стратегии «мягкой силы» Турецкой Республики. Как и во многих других странах, кадры, направляемые на кафедры тюркологии или в образовательные учреждения Узбекистана, где преподается турецкий язык, вносят вклад в высококачественное обучение турецкому языку и турецкой культуре. В то же время реализация различных проектов на основе «моста турецкого языка» способствует укреплению связей между государствами. В первой части статьи освещаются исторические предпосылки, причины и правовые основы процесса, после чего подробно анализируются механизм направления «преподавателей/педагогических кадров», критерии отбора кандидатов, система экзаменов и процессы их адаптации. В заключительной части исследования представлена подробная информация обо всех указанных аспектах, а также отмечена активная деятельность 22 преподавателей турецкого языка, работающих по всему Узбекистану – как в его столице, Ташкенте, так и в различных регионах страны. Неуклонно растущий в Узбекистане интерес к турецкому языку приводит нас к заключению о необходимости увеличения числа квалифицированных преподавателей турецкого языка. На основе результатов данного исследования можно сделать вывод о том, что недостаток в преподавателях турецкого языка в тех образовательных учреждениях*

Узбекистана, где он преподается, может быть восполнен при тесном взаимодействии с Министерством национального образования Турецкой Республики.

Ключевые слова

Образовательная дипломатия, мягкая сила, академическая мобильность, направление кадров за рубеж, турецкий язык

Kirish

Globalashayotgan dunyoda davlatlar o'zlarining xalqaro munosabatlarini nafaqat siyosiy va harbiy kuch unsurlari, balki madaniy va insoniy qadriyatlar almashinuviga asoslangan "yumshoq kuch" (soft power) vositalari orqali ham shakllantirmoqdalar. Turkiya Respublikasi o'zining boy tarixiy merosi va madaniy xilma-xilligini ta'lim diplomatiyasi kanallari orqali chegaralardan tashqariga olib chiqib, ham xorijdagi fuqarolarining madaniy aloqalarini saqlab qolishni, ham qardosh xalqlar va xorijiy jamiyatlarga turk tili va madaniyatini tanitishni maqsad qilgan. Shu nuqtayi nazardan, Milliy ta'lim vazirligi (MEB) o'zining xorijdagi tashkilotlari orqali amalga oshirayotgan ta'lim faoliyatlari bilan Turkiya madaniy diplomatiyasining eng muhim ijrochi muassasalaridan biri sanaladi.

MEB tomonidan xorijga ta'lim xodimlarini yuborish jarayoni 1960-yillarda boshlangan ishchilar migratsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Turkiya fuqarolarining Yevropa mamlakatlariga ommaviy ko'chishi natijasida yuzaga kelgan ta'lim va madaniy mansublik muammolarini hal qilish maqsadida, ilk bor 1965-yilda Germaniyaga 17 nafar o'qituvchining yuborilishi bilan boshlangan bu jarayon bugungi kunga kelib butun dunyoni qamrab olgan keng ko'lamlı davlat siyosatiga aylandi (Şen, 2020; 218; Karasu, 2018; 178). Dastlab faqatgina fuqarolarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ushbu qadam vaqt o'tishi bilan Sovet Ittifoqi parchalanishi ortidan mustaqillikka erishgan Turkiy Respublikalar va turk tiliga qiziqish bildirgan boshqa davlatlarni

ham o'z ichiga oladigan darajada kengaydi (Baltürk, 2023; 46).

Mazkur kadrlarni xizmatga yuborishning asosiy maqsadi; turk madaniyatini xorijda tanitish, yoyish va asrab-avaylash, xorijdagi fuqarolar va qardoshlarning madaniy aloqalarini mustahkamlash hamda turk tilini o'rgatishdan iborat (BAOKK; 1-modda). Ushbu faoliyatlar 652-sonli Qonun kuchiga ega bo'lgan qaror (KHK) hamda 2003-yil 3-iyulda Rasmiy gazetada e'lon qilingan 2003/5753-sonli Vazirlar Mahkamasi Qarori bilan huquqiy zaminga ega bo'ldi (Akman, 2017; 347). Tegishli qonunchilik xodimlarni tanlashdan tortib xizmat muddatlarigacha bo'lgan barcha jarayonlarni "Vazirliklararo qo'shma madaniyat komissiyasi" (BAOK) vakolatiga topshirgan.

Ushbu tadqiqot MEBning xorijga kadrlar yuborish siyosatini markazga qo'ygan holda, xususan, Turkologiya kafedralari va Turk madaniyat markazlarida faoliyat yuritadigan professor-o'qituvchilar, dars beruvchi pedagoglar va lektorlarni tanlash jarayonlarini yoritib beradi. Tadqiqotda; nomzodlar ega bo'lishi kerak bo'lgan malaka talablari, qo'llaniladigan "Kasbiy layoqat" va "Vakillik qobiliyati" imtihonlarining mazmuni, tanlovdan so'ng o'tkaziladigan moslashuv seminarlari hamda xizmatga yuborish tamoyillari tizimli ravishda tahlil qilinadi.

Asosiy Qism

Turkiyaning xorijga ta'lim xodimlarini yuborish amaliyoti asosan ikkita yirik tarixiy burilish nuqtasi asosida shakllangan. Birinchisi, 1960-yillarda G'arbiy Yevropaga yuz bergan ishchi kuchi migratsiyasidir. Bu davrda ko'chib ketgan fuqarolar farzandlarining o'z ona tillarini

unutmasliklari va milliy o'zligini yo'qotmasliklari maqsadida "Ona tili va turk madaniyati" darslari o'ziga xos ehtiyoj sifatida yuzaga keldi. Ikkinchi burilish nuqtasi esa 1990-yillarning boshlarida "Sovuq urush"ning tugashi va Turkiya Respublikalarning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishidir. Bu davrda Turkiya "Buyuk talabalar loyihasi" va ta'lim sohasidagi hamkorliklar orqali O'rta Osiyo hamda Bolqon davlatlaridagi madaniy ishtirokini yanada mustahkamladi (Baltürk, 2023; 46-47).

Bugungi kunda MEB nafaqat o'z fuqarolari istiqomat qilayotgan davlatlarga, balki turk tilini xorijiy til sifatida o'qitishni talab qilgan mamlakatlarga ham lektor va pedagog kadrlarni yubormoqda. Mazkur xizmat safarlarining asosiy maqsadi turk tili va madaniyatining xalqaro miqyosdagi ommaviyligini oshirish hamda Turkiyaning "yumshoq kuchi"ni mustahkamlashdan iboratdir. Baltürk (2023; 109) ta'kidlaganidek, ta'lim va madaniyat faoliyatlari davlatlararo munosabatlarning "ta'sirchan va nozik jihatini" tashkil etib, nodavlat ishtirokchilar (aktyorlar) orqali barqaror aloqalar o'rnatilishini ta'minlaydi. MEB tomonidan yuborilgan kadrlar nafaqat pedagog, balki ayni paytda turk madaniyatini namoyon etuvchi "madaniyat elchisi" vazifasini ham o'z zimmalariga oladilar (Akman, 2017; 348; Şen, 2020; 218).

Xorijga xizmatga yuborishning ma'muriy va huquqiy doirasi turli vazirliklarning o'zaro muvofiqlashtiruvchi asosida yuritiladi. Jarayonning markazida 2003-yil 5-iyundagi Vazirlar Mahkamasi Qarori bilan vakolat berilgan "Vazirliklararo qo'shma madaniyat komissiyasi" (BAOK) joy olgan.

Komissiya Tashqi ishlar vazirligi muvofiqlashtiruvchi Milliy ta'lim vazirligi, Madaniyat va turizm vazirligi hamda Moliya vazirligi vakillaridan tashkil topadi. Shuningdek, tegishli holatlarda Diniy ishlar boshqarmasi hamda Xorijdagi turklar va qardosh jamoalar boshqarmasi vakillari ham komissiya tarkibiga kiritilishi mumkin (BAOKK, 2003; 4-modda). Komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Xorijga xizmatga yuboriladigan xodimlarning unvoni, soni va malaka talablarini belgilash;
2. Tanlovning asosiy qoidalari va usullarini (imtihon va suhbat jarayonlarini) tartibga solish;
3. Xodimlarning xizmat joylari va muddatlarini aniqlash;
4. Xorijdagi xizmat muddatini tugatish yoki uzaytirish bo'yicha qaror qabul qilish (BAOKK, 2003, 5-modda).

Komissiya o'z qarorlarini bir ovozdan qabul qiladi hamda xodimlarni tanlash va tayinlash jarayonida yagona vakolatli organ hisoblanadi. Xizmatga yuboriladigan umumiy xodimlar soni Vazirlar Mahkamasi qarori bilan chegaralangan bo'lib, bu ko'rsatkich 3500 nafardan oshishi mumkin emas (BAOKK, 2003; 6-modda).

Ushbu bo'limda MEBning Oliy ta'lim va xorijdagi ta'lim bosh boshqarmasi tomonidan e'lon qilingan "2026-yilda xorijga xizmatga yuboriladigan professor-o'qituvchi/dars beruvchi pedagog/lektorlarni tanlash imtihoni bo'yicha yo'riqnoma"ga asoslanib, professor-o'qituvchilarni tanlash jarayoni tahlil qilingan.

Xorijda, xususan, universitetlarning Turkologiya kafedralarida yoki Turk madaniyat markazlarida faoliyat yuritadigan nomzodlarga qo'yiladigan talablar "Umumiy" va "Maxsus" bo'lib, ikki toifaga bo'linadi:

- *Umumiy talablar:* Turkiya Respublikasi fuqarosi bo'lish, davlat muassasalarida (universitet yoki MEB tizimida) kamida 5 yillik ish stajiga ega bo'lish, sudlanmagan bo'lish, o'z vazifasini bajarishga to'sqinlik qiladigan sog'lig'i bilan bog'liq muammosi bo'lmasligi hamda so'nggi 10 yil ichida hayfsan jazosidan og'irroq intizomiy jazo olmagan bo'lish asosiy talablardir (MEB, 2025; 4-5; BAOKK, 2003; 7-modda).
- *Maxsus talablar va akademik malaka:* Lektor sifatida xizmatga yuboriladigan nomzodlar Turk tili va adabiyoti, Turk tili, Zamonaviy turkiy tillar yoki Xorijiy tillar (ingliz, fransuz, nemis va hokazo)

yo'nalishlarini tamomlagan hamda tegishli sohalarida kamida magistr yoki doktorlik darajasiga ega bo'lishlari lozim (MEB, 2025; 2-3).

- *Chet tili talabi:* Nomzodlardan xizmatga yuboriladigan hudud tili yoki xalqaro doirada keng qo'llaniladigan tillar (ingliz, nemis, fransuz, rus, arab va boshqalar) bo'yicha YDS yoki YÖKDİL kabi imtihonlardan komissiya tomonidan belgilangan minimal balni (odatda kamida 50 ball) olgan bo'lish talab etiladi (MEB, 2025; 2).

Nomzodlarni tanlash ularning kasbiy layoqati va davlat vakili bo'lish qobiliyatini baholovchi ikki bosqichli imtihon tizimi orqali amalga oshiriladi.

Jarayonning ilk bosqichi hisoblangan kasbiy layoqat imtihoni nomzodlarning mutaxassislik bilimlari va umumiy dunyoqarashini o'lchashni maqsad qilgan. 2026-yilgi yo'riqnomaga ko'ra, mazkur imtihon yozma va og'zaki bo'lishi bilan ikki qismdan iborat:

- *Yozma imtihon mazmuni:* Turk tili va turk adabiyoti (30%), Turk tarixi va madaniyati (30%), Pedagogika fanlari va o'qitish metodikasi (20%) hamda Qonunchilik va umumiy dunyoqarash (20%) mavzularini qamrab oladi (MEB, 2025; 6-7).
- *Og'zaki imtihon:* Yozma imtihondan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar mutaxassislik bilimlari bilan bir qatorda; turk madaniyatini bilish, umumiy dunyoqarash, xalqaro munosabatlar va nutq madaniyati (fikrni ifodalash qobiliyati) kabi mezonlar bo'yicha og'zaki imtihondan o'tkaziladi. Kasbiy layoqat bali yozma va og'zaki imtihon ballarining o'rta arifmetigini hisoblash orqali aniqlanadi hamda 60 ballik chegaradan o'tgan nomzodlar keyingi bosqichda ishtirok etish huquqini qo'lga kiritadilar (BAOKK, 2003; 7/A-modda).

Ushbu bosqich nomzodning xorijda Turkiya Respublikasi nomidan munosib vakil bo'la olish yoki olmasligi baholanadigan eng

muhim bosqichdir. Vazirliklararo qo'shma madaniyat komissiyasi a'zolari tomonidan o'tkaziladigan mazkur suhbatda nomzodlar quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi:

1. Turk tili va turk adabiyoti bo'yicha bilim;
2. Turk tarixi va madaniyati sivilizatsiyasi;
3. Umumiy dunyoqarash va qonunchilik;
4. O'ziga ishonch, ishontirish qobiliyati, fikrni ifodalash va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyati;
5. Layoqat, vakillik qobiliyati, xulq-atvor va munosabatning vazifaga mosligi (MEB, 2025; 11).

Ushbu imtihondan 100 ballik tizimda kamida 70 ball to'plagan nomzodlar muvaffaqiyatli o'tgan hisoblanadi va ballar ustunligi asosida xizmatga yuboriladiganlar ro'yxatiga kiritiladi.

Imtihon jarayonlarini muvaffaqiyatli yakunlagan professor-o'qituvchilar va pedagoglar xorijdagi xizmatini boshlashdan oldin majburiy "Moslashuv seminari"ga jalb etiladi.

MEB tomonidan tashkil etiladigan ushbu seminarlarning maqsadi xodimlarni o'zlari boradigan mamlakat sharoitlariga, diplomatik protokolga va o'z zimmlariga oladigan missiyaga tayyorlashdan iboratdir. Seminarlarda Turk tashqi siyosatining asosiy tamoyillari, madaniy diplomatiya, xorijdagi fuqarolarning muammolari, boriladigan mamlakatning ta'lim tizimi va qonunchiligi kabi mavzularda ta'lim beriladi (Karasu, 2018; 180; Akman, 2017; 348). Şen (2020; 231) mazkur seminarlar 15 kun davom etishini va shoshilinch ehtiyoj holatlaridan tashqari barcha xodimlarning ishtirok etishi majburiy ekanligini ta'kidlaydi.

Muvaffaqiyat qozongan xodimlarni xizmatga yuborish Tashqi ishlar vazirligi muvofiqlashtiruvda tegishli mamlakatdagi universitetlar yoki rasmiy idoralardan olingan qabul (taklif) xati bilan tasdiqlanadi. Xizmat muddati dastlab 1 yil qilib belgilanadi. Biroq xodimning muvaffaqiyati va xizmat zaruriyati hisobga olingan holda, ushbu muddat har safar 1 yildan oshmasligi sharti bilan Komissiya

qaroriga muvofiq ko'pi bilan yana 4 yilga uzaytirilishi mumkin. Shu tariqa, umumiy xizmat muddati 5 yilgacha yetishi mumkin (BAOKK, 2003; 8-modda; MEB, 2025; 14).

Xizmatga yuboriladigan mamlakatlar strategik ustuvorliklar va ehtiyojlarga muvofiq guruhlariga ajratiladi. Masalan, 2026-yilgi rejalashtirishda; Afg'oniston, Pokiston va Suriya kabi mamlakatlar "A guruhi"dan joy olgan bo'lsa, dunyoning boshqa mamlakatlari "B guruhi" sifatida tasniflangan. Shuningdek, xorijiy til yo'nalishlari (ispan, italyan, fors va boshqalar) uchun maxsus kvotalar ("C guruhi") hamda Tarix sohasi ("D guruhi") uchun ham alohida xizmatga yuborishlar amalga oshiriladi (MEB, 2025; 2-3).

Xulosa

Turkiyaning ta'lim diplomatiyasi vizioni doirasida MEB tomonidan amalga oshirilayotgan xorijga professor-o'qituvchilar va pedagoglarni yuborish jarayoni ko'p bosqichli va sinchkovlik bilan o'tkaziladigan tanlovga asoslangan tizimga ega. Markazida Vazirliklararo qo'shma madaniyat komissiyasi (BAOK) joy olgan ushbu tuzilma nomzodlarning nafaqat kasbiy bilimlarini, balki turk madaniyatini namoyon etish qobiliyatlarini ham o'lchaydi.

Jarayon huquqiy talablarning bajarilishi, yozma va og'zaki kasbiy layoqat imtihonlari, vakillik qobiliyati suhbatlari hamda moslashuv

seminarlari zanjiridan tashkil topadi. Tanlab olingan professor-o'qituvchilar dunyoning turli mintaqalaridagi universitetlarning Turkologiya kafedralari va Turk madaniyat markazlarida faoliyat yuritib, turk tilining ilm-fan va madaniyat tili sifatida keng tarqalishiga hissa qo'shmoqdalar. Ushbu dastur Turkiyaning xalqaro maydondagi ommaviyligi va nufuzini oshiribgina qolmay, mamlakatlar o'rtasida madaniy ko'priklar o'rnatilishida ham o'ta muhim rol o'ynamoqda.

Ayni paytda, xususan, O'zbekiston miqyosida jami 22 nafar lektor poytaxt Toshkent va O'zbekistonning turli viloyatlarida faol xizmat qilmoqda. O'zbekistonda kundankunga turk tiliga bo'lgan qiziqishning ortib borayotgani bu sonni yanada oshirish kerakligi xulosasini yuzaga chiqarmoqda. Ushbu jarayonning to'g'ri va samarali ishlash yo'li esa Milliy ta'lim vazirligining mazkur dasturi doirasida pedagog kadrlarga ehtiyoji bo'lgan universitet va institutlarning ushbu ehtiyojlarini zarur rasmiy kanallar orqali Turkiya Respublikasi davlatiga yetkazishlaridan iboratdir. Turkiya Respublikasi davlati tomonidan amalga oshiriladigan kadrlar yuborish amaliyoti talabgor muassasaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda shakllanishini hisobga olib, talablarning mavjud ehtiyojga muvofiq ravishda aniq bildirilishi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

References:

1. Akman, Y. (2017). Millî Eğitim Bakanlığı yurtdışı teşkilatında görev yapan öğretmenlerin sorunları. *Ege Eğitim Dergisi*, 18(1), 345–375.
2. Baltürk, F. (2023). *Yumuşak güç bağlamında Türkiye'nin Özbekistan politikası* (Yayımlanmamış yüksek lisans tezi). İstanbul Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü.
3. Bakanlıklararası Ortak Kültür Komisyonunun Çalışma Esas ve Usulleri ile Bu Komisyon Tarafından Yurt Dışında Görevlendirilecek Personelin Nitelikleri ile Hak ve Yükümlülüklerinin Belirlenmesine İlişkin Karar [BAOKK]. (2003). *Resmî Gazete*, (25157).
4. Karasu, M. S. (2018). MEB tarafından yurt dışına görevlendirilen öğretmenlerin gidış nedenleri. *Gümüşhane Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi*, 9(24), 177–191.
5. Millî Eğitim Bakanlığı. (2025). *Yurt dışında görevlendirilecek öğretim üyesi / öğretim görevlisi / okutman seçme sınavı başvuru kılavuzu 2026*. Yükseköğretim ve Yurt Dışı Eğitim Genel Müdürlüğü.

6. Şen, Ü. (2020). Millî Eğitim Bakanlığının yurt dışına Türkçe ve Türk kültürü dersi öğretmeni görevlendirme politikasının yıllara göre değerlendirilmesi. *Ana Dili Eğitimi Dergisi*, 8(1), 217–236.
7. Toprakçı, E., & Kocakaya, A. (2022). Çevrimiçi forumlardaki görüşleri temelinde MEB tarafından yurtdışında görevlendirilen öğretmenlerin yaşadığı sorunlar. In *10th International Conference on Social Sciences & Humanities: Proceedings Book*. 607–618. Proceedings Book. – 2022. – S. 607–618.